

BOLALARDA AGRESSIVLIKNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Xajibayeva Shoira Xasanbayevna

Urganch innovatsion universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti BTM 2- kurs talabasi

Jo‘rayeva Nafisa Ilxomovna

Xorazm viloyat Shovot tumani 37-MMT tayyorlov guruh tarbiyachisi

Annatatsiya: maqolaning qisqacha mazmuni bugungi o‘sib kelayotgan yosh avlodni ta’lim – tarbiya borasida olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad har tamonlama yetuk, ma’naviy barkamol inson qilib kamol topish jamiatimizning ustuvor vazifasidir, shu o‘rinda bolalar yosh davrlari inqirozi paytida qiyinchiliklarga ro‘boro bo‘lib, natijada uning hatti harakatlarida agressiya elementlari kuzatila boshlaydi. Odatda bolalardagi tushkunlik, siqilish holatlariga kattalar tomonida yetarlicha e’tibor qaratilmaydi. Aslida bunday holat bolalarda chuqur taassurot qoldirib, o‘tishi qiyin kechishi va shunday holatlarni aniqlash hamda ularni oldini olish to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: Agressiya, agressivlik holati, agressiv xatti–harakat, yosh davrlari inqirozi, ruhiy qiyничилик, oilada ota-onalar, psixoterapevik ishlar.

Annotation: the summary of the article is that the main goal of the reforms carried out in the field of education and upbringing of today's growing young generation is the priority task of our society to make them fully mature, spiritually mature people, and the crisis of children's youth is here. faced with difficulties, as a result, elements of aggression begin to be observed in his actions. Adults usually do not pay enough attention to depression and stress in children. In fact, such a situation leaves a deep impression on children and is difficult to overcome, and it is about identifying and preventing such situations.

Key words: Aggression, state of aggression, aggressive behavior, youth crisis, mental difficulties, parents in the family, psychotherapeutic work.

Kalit so‘zlar: Agressiya, agressivlik holati, agressiv xatti–harakat, yosh davrlari inqirozi, ruhiy qiyничилик, oilada ota-onalar, psixoterapevik ishlar.

Аннотация: резюме статьи заключается в том, что основной целью реформ, проводимых в сфере образования и воспитания современного подрастающего молодого

поколения, является приоритетная задача нашего общества сделать его всесторонне зрелыми, духовно зрелыми людьми, а кризис детская юность здесь сталкивается с трудностями, в результате в его действиях начинают наблюдаться элементы агрессии. Взрослые обычно не уделяют должного внимания депрессии и стрессу у детей. На самом деле такая ситуация оставляет у детей глубокое впечатление и ее трудно преодолеть, и речь идет о выявлении и предотвращении таких ситуаций.

Ключевые слова: Агрессия, состояние агрессии, агрессивное поведение, подростковый кризис, психические трудности, родители в семье, психотерапевтическая работа.

“Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”

Sh.M.Mirziyoyev

Bugungi o‘sib kelayotgan yosh avlodni ta’lim–tarbiya borasida olib borilayotgan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad har tamonlama yetuk, ma’naviy barkamol inson qilib kamol topish jamiyatimizning ustuvor vazifasidir.

Bu borada kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda oilada, maktab va mактабгача ta’lim tashkilotlarining o‘rni beqiyosdir.

Mamalakatimizda turli xarakterga ega bo‘lgan obektiv va sub’ektiv omillar ta’sirida, xususan, maktabgacha yoshdagи bolalar xulq–atvorlarida o‘zgarishlar, masalan agressiv holatlar kuzatiladi.

Bola tarbiyasida ota-onalar muhim o‘rin tutadi. Bola shaxsini tarbiyalashda bugungi kunda oiladek ta’sirchan ijtimoiy institut yo‘q oilada psixologik muhit qanchalik ijobiy bo‘lsa bolalar tarbiyali va saviyali bo‘lib voyaga yetishadi.

Hozirgi kunda agressivlik holati ko‘pgina kichik yoshdagи bolalarga xos bo‘lib, ko‘p hollarda bolalarda agressiv xatti–harakat o‘tish davrida kuzatiladi.

Bolalar yosh davrlari inqirozi paytida qiyinchiliklarga ro‘baro bo‘lib, natijada uning hatti harakatlarida agressiya elementlari kuzatila boshlaydi. Odatda bolalardagi tushkunlik, siqilish holatlariga kattalar tomonida yetarlicha e’tibor qaratilmaydi. Aslida bunday holat bolalarda chuqr taassurot qoldirib, o‘tishi qiyin kechadi.

AGRESSIV BOLALAR NING XUSUSIYATLARI

- har bir vaziyatdan havf –xatar sezish;
- o‘ziga nisbatan munosabatni his qilish;
- atrofdagilarni salbiy idrok qilish;
- o‘zini nazorat qila olmaslik;
- salbiy xatti-harakatlarning oqibatlarini o‘ylamaslik;
- insonlar va hayvonlarga nisbatan bag‘ritoshlik;
- agressiyadan zavqlanish, u yordamida kuchli bo‘lamana deb o‘ylash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiyaning paydo bo‘lishiga, rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar quydagilardan iborat:

1.Oila:

- oiladagi tabiyaning usuli;
- oilada o‘zini ortiqcha keraksiz his qilish;
- oilada mehr –muhabbatni etishmasligi;
- oiladagi notinchlik, urush, janjallar;
- hissiyotlarga nisbatan befarqlikni his qilish;

2.Kattalarning munosabatlari:

- bolalar bilan sabiy muloqot;
- ko‘p buyruq berish, ayblov va tahdidlar;
- kichkintoyni tanqid va haqorat qilish;
- bolaning xohish istaglarini hisobga olmaslik;

3.Bolaning guruhdagi o‘rnidan, tengdoshlarining munosabatlaridan qoniqmasligi.

Bolalar orasidagi munosabatlarga quydagilar ta’sir ko‘rsatadi:

- tashqi ko‘rinishi yoqimtoyligi, tartib-intizomi, toza -ozodaligi;
- jiroyli o‘yinchoqlarga egaligi;
- dunyoqarashi;

- kattalarning ijobiy munosabatlari;
- lider;

Yuqoridagi holatlardan ma'lum bo'ladiki, aksariyat hollarda boladagi agressiyaning sababi oilaviy munosabatlar sanaladi.

Agar oilada ota-onalar bolaga qiyinchiliklarni yengishga yordam bersa, bolani tinchlantira olsa, muloqatga mehribonlik, g'amxo'rlikni kirlitsa, shu asosida unda aggressivlikni engib o'tishga imkoniyat yaratadi.

Agressiv bolaning ota-onasi bilan ishslash qiyin jarayon. Buning asosiy sababi o'sha ota-onalar ham o'z vaqtida agressiv farzand bo'lgan. Ruhiy qiyinchiliklar esa farzandlariga "meros" bo'lib o'tadi. Shuning uchun psixolog ota-onalar bilan psixo-terapevik ishlarni olib borish kerak. Ota-onalar aggressiv bolalarni noshud deb hisoblaydilar, bola ularning hissiyotlari va ro'kachlariga javoban afsuslanadi, o'z aybini his qiladi kechirim so'raydi va ularni tinchlantiradi deb kutadilar.

Ota-onalardan o'zlarining bolaligini eslashini so'rash, yoshlik davridagi aggressivliklarining sabablarini yodga solishi zarur.

Kichkintoylarning individual muammosini ko'p bolalarda oilaviy muammo vujudga keltiradi.

Korreksion uslub har bir bo'lgan alahida yo'naltirilgan bo'lishi talab etiladi.

BUNI QUYDAGI KORREKSION ISHLARNI KO'RIB CHIQISHDA HISOBGA OLISH KERAK.

1. Agressiyning bartaraf etishda o'yindan foydalanish, yangi ijtimoiy yondashishni tadbiq etish, ma'noni emotsional to'ldirish.

Bolaning agressiv harakatlarini ta'qiqlash.

Korreksional ishlar faqat bola bilan emas, parallel rivojlanishda ota-onalar va tarbiyachilar bilan hamkorlikda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Kichkintoy har doim uni yaxshi ko'rishlarini sezish va tushunishi lozim.

U ota-onasiga kerakligini his qilishi darkor.

Bolalarda aggressivlikni bartaraf qilish uchun ularga quydagilarni taklif qilish mumkin:

- yostiq bilan kurashish;
- jismoniy harakatli o'yinlardan foydalanish;

- qog'oz yirtish;
- urushgisi kelayotgan odam rasmini chizish va yirtib tashlash;
- hayqiriq xaltachasidan foydalanish;
- psixo-gimnastika bilan shug`ulanish;
- ertakterapiya, izoterapiya, artterapiya, musiqiy terapiya animalterapiya-uy hayvonlaridan foydalanish;

Bolalardagi agressivlikni bartaraf etishda ota-onalar va pedoglarning vazifalari:

- o‘zining negativ hissiyotlarini nazorat qilishlari;
- bolalarning o‘z his tuyg‘ulari, kechinmalari haqida suhbatlashish;
- kichkintoyning “ichki dunyosiga” qulq solish;



Kattalardan fariqli ravishda bolalar nizoli vaziyatlarga kattalarni ota –onalarni, tarbiyachilarni aralashtiradi.



Tengdoshlar orasida yuzaga kelgan muommolarda yordam berishlarini so‘raydi.

Kichkintoylardagi aggressiv munosabatlarni, xatti-harakatlarini bartaraf etishni, avvalo oiladagi munosabatlarni o‘rganish ota-onalar bilan hamkorlik qilishdan boshlash lozim.

Bolalardagi aggressivlikni bartaraf qilishga muvaffaq bo‘la olsak, uning kelajagi ham yorug‘ bo‘ladi.

Yuqorida mutaxassislar fikri hamda, kundalik faoliyatimdan kelib chiqib shuni aytmoqchiman, aksariyat agressevlik oiladagi muhitdagi kelishmovchilikdan kelib chiqishga sabab bo‘lmoqda.

Ularni bartaraf qilishda ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotimizda, mutaxassis pedxodimlar, psixologlar va vrachlar bilan hamkorlikda sog‘lomlashtirish ishlari olib borilmoqda.

O‘yin orqali olib borilgan ta’lim tarbiya jarayonlari yaxshi samara bermoqda.

Shu boisdan ota–onalarga murojatim bor farzandlaringizning porloq kelajagi sizning qo‘lingizda.

Foydalanimgan adabiyotlar:

- 1.G‘oziyev E.o’. Oliy maktab psixologiyasi. «O‘qituvchi» ,T.: 1997.
- 2.Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. T.: 2003.
- 3.Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. Jizzax 2005.
- 4.Adizova T.. Psixologik korreksion ishlari. T.2000
- 5.Otajonov M.Yu. Psixologik bilimlarning tarixiy falsafiy asoslari. Farg`ona: 1995. -153.
- 6.Temurova S. Bolalarni progressiv an`analar namunalarida tarbiyalash.
Toshkent "O`qituvchi", 1980. -88 s.
- 7.E.G. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent, "O`qituvchi", 1990.-184 s.